Ishonchli va barakali™

UZ | RU

OSHXONA PLITASI

FOYDALANISH
QO'LLANMASI

Oshxona plitaning konstruktsiyasi

60x60sm

artelelectronics.com

+998 78 148-88-88

@artelelectronics

MUNDARIJA

HURMATLI XARIDOR!

«ARTEL» kompaniyasining mutaxassislari mahsulotlarni takomillashtirish, ularning tavsiflari, dizayni va xavfsizligini yaxshilash bo'yicha tinimsiz ish olib boradilar, shuning uchun qo'llanmada rasmlar va belgilanishlar Sizning modelingizdan biroz farq qilishi mumkin. Oldindan xabar qilmasdan o'zgartirishlar kiritish huquqini «ARTEL» kompaniyasi o'zida saqlab qoladi.

Qilgan xaridingiz uchun Sizga minnatdorchilik bildiramiz va Siz bizning mahsulotimiz sifati va mustahkamligiga ishonch hosil qilishingizga umid qilamiz.

Xarid qilish vaqtida Sizdan foydalanish bo'yicha qo'llanmani diqqat bilan o'rganib chiqishingizni va kafolat taloni to'g'ri to'ldirilganligini tekshirishingizni so'raymiz. Bunda plita modelining seriya raqami va nomi kafolat talonida yozilganiga aynan o'xshash bo'lishi kerak. Talonga biron-bir o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Kafolat taloni noto'g'ri yoki noto'liq to'ldirilgan taqdirda darhol sotuvchiga murojaat qiling.

SHARTLI BELGILAR

Ogohlantirishlar! Ehtimoldagi shikastlanish va jarohatlar to'g'risida ogohlantirish.

Diqqat!

Taqiqlangan!

Qismlarga bo'lmang!

Teginmang!

Yo'riqnomalarga qat'iy rioya qiling

Elektr rozetkadan o'chirib qo'ying

Yerga ulanish

DIQQAT!

Alohida pol ustida turadigan oshxona plitasidan (bundan buyon plita) foydalanishdan oldin mazkur foydalanish bo'yicha yo'riqnomani diqqat bilan o'qib chiqing va maxsus simvollar bilan belgilab qo'yilgan bandlarga alohida e'tibor qarating.

Foydalanish bo'yicha yo'riqnomani qulay va ishonchli joyda saqlang. Sizga plitadan foydalanish vaqtida kerak bo'lishi mumkin.

XAVFSIZLIKKA QO‘YILADIGAN TALABLAR.

1.1. Xaridor ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan tarmoqdagi gaz bosimi hamda tarmoqdagi elektr kuchlanishi parametrlarini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Gaz tarmog'i parametrlari oshganda reduktor o'rnatish lozim. (7-betdagi "Texnik tavsiflar" jadvaliga qarang). Elektr tarmog'i parametrlari oshganda, yoki elektr ta'minoti barqaror bo'lmasa, elektr energiya kuchlanishi stabilizatorini o'rnatish lozim.
Bordiyu, tarmoqda gaz bosimi yoki elektr kuchlanish parametrlari ta`minlanmasa va ularga rioya qilmaslik mahsulotga berilgan kafolat majburiyatlari o`z kuchini yo`qotadi.

DIQQAT!

1.2 Plitani ulash faqat malakali mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi kerak. Siz tomoningizdan sotib olingan plita maxsus o‘rnatilish va gaz ta'minoti tizimiga ulanishni talab qiladi (elektr plitadan tashqari). Noto‘g‘ri ulanish oqibatida yetkazilgan shikastlanishlar kafolat majburiyatlari olib tashlanishiga olib keladi.
1.3 Elektr jihozlarga ega plitalar modellari elektr toki urishidan I himoya darajasi bo‘yicha ishlangan va yerga ulangan rozetkaga ulanishi kerak.
1.4 Plita faqat maishiy maqsadlarda ishlatish uchun mo‘ljallangan. Plitadan faqat ovqat tayyorlashda foydalaning.
Plitani boshqa maqsadlar uchun, masalan, xonalarni isitish uchun ishlatish taqiqlanadi.
1.5 Plita jismoniy, sensorli yoki aqliy qobiliyati cheklangan va yetarlicha bilim va tajribaga ega bo'lmagan shaxslar (bolalarni qo'shib) tomonidan ishlatish uchun mo‘ljallanmagan, agar ular nazorat ostida foydalanayotgan bo'lmasalar yoki ularning xavfsizligi uchun javobgar shaxs tomonidan plitani ishlatish qoidalari bo‘yicha yo'riqnomadan o'tkazilmagan bo'lsalar.
1.6 Plitaning issiq konforkalari, ichki yuzalari va duxovka shkafining qizitish elementlariga teginmang. Bolalarga ishlab turgan plita yoniga kelishiga ruxsat bermang. Bolalar plita bilan o‘ynashlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun ular nazorat ostida bo‘lishlari kerak.
1.7 Qisqa tutashuv sodir bo‘lmasligi uchun duxovkaning qizib ketgan eshigi bilan uning yonida joylashgan elektr uskunalarning bog‘lanish simlarini qisib qo‘ymang va ularni qiziydigan yuzalar orqali o‘tkazmang. Kabelning himoya qoplami izolyatsiyasi erib ketishi mumkin.
1.8 Shikastlangan (singan, darz ketgan, deformatsiyalangan) konforkalarga ega plitadan foydalanish taqiqlanadi.
1.9 Qizib ketgan o‘simlik moyi yoki yog‘ oson alangalanadi. Qizib ketgan o‘simlik moyi yoki yog‘ni nazoratsiz qoldirmang. Hech qachon olovni suv bilan o‘chirmang! Konforkani o‘chirib qo‘ying! Alangani qopqoq, zich choyshab yoki shunga o‘xshash narsalar bilan o‘chirish mumkin.
1.10 Oson alangalanadigan narsalar (yonuvchan moddalar, aerozollar, qog‘oz, lattalar)ni duxovka shkafida va idish-tovoqlarni saqlash uchun pastki qutida (pastki quti mavjud bo‘lganda) saqlamang, qutida faqat duxovka shkafi uchun maxsus jihozlarni saqlash mumkin.

1.11 Malakasiz ta'mirlanganda plita xavf manbasiga aylanishi mumkin. Shuning uchun ta'mirlash ishlari faqat maxsus o'qitilgan servis markazining mutaxassisi tomonidan bajarilishi kerak. Agar plita nosoz bo'lsa, vilkani rozetkadan olib qo'ying yoki saqlagichlar blokida tegishli saqlagichni o'chirib qo'ying, gaz uzatilishini berkitib qo'ying. Servis markazining mutaxassisini chaqiring.

1.12 Xizmat ko'rsatishdan oldin albatta plitani elektr tarmog'idan o'chirib qo'ying. Rozetkadan ta'minot simi vilkasini faqat plitaning barcha qizdirish elementlari o'chirilganidan so'ng olish mumkin.

1.13 Gaz (elektr) konforka ustida idish qo'yilmagan bo'lsa, uni yoqish taqiqlanadi. Asbob va uning ustida joylashgan havo tortish moslamasi shikastlanishi yoki yonib ketishi mumkin. Gaz (elektr) konforkani faqat ustiga qo'yilgan idishda yoqing.
Hech qachon konforka ustiga bo'sh idishni qo'ymang.

UMUMIY KO'RSATMALAR

2.1 Mazkur foydalanish bo'yicha qo'llanma APETITO, MILAGRO, DOLCE, COMARELLA, OTTIMA, SIMFONIYA, GUSTO modellari plitalariga taalluqlidir.
2.2 Plita o'zi bilan texnik jihatdan murakkab maishiy maqsadlar uchun mo'ljallangan asbobni kasb etadi. Asbobdan ehtiyot bo'lib foydalanganda, u sizga ko'p yillar davomida ishonchli xizmat qiladi.
2.3 Foydalanish jarayonida mexanik shikastlanishlarga, ichiga begona narsalar, suyuqliklar, hasharotlar, kemiruvchilar, hayvonlar tushishiga yo'l qo'ymang.
2.4 Butun xizmat ko'rsatish muddati davomida plitaning modeli va seriya raqami ko'rsatilgan markalash yorlig'i saqlanishiga e'tibor bering.
2.5 Plitani ishlatish xona harorati va namligi oshishiga olib keladi. Plitadan foydalanganda xona yetarlicha shamollatib turilishiga alohida e'tibor qaratish lozim: tabiiy ventilyatsiya teshiklarini to'sib qo'ymang yoki maxsus ventilyatsiya uskunalarini (masalan, plita ustida havo tortish moslamasini) ishlating. Plitadan jadal va uzoq vaqt davomida foydalanganda qo'shimcha ventilyatsiya talab qilinishi mumkin, bu holda derazani ochib qo'yish yoki maxsus ventilyatsiya uskunasini yanada yuqori quvvatda ishlatish kerak.
2.6 Gaz uzatishning umumiy krani ko'rinadigan, oson foydalanish mumkin joyda bo'lishi kerak. Agar plita ishlatilmayotgan bo'lsa, gaz uzatishning umumiy krani o'chirilgan holatda bo'lishi lozim.

2.7 Har doim suyultirilgan gaz bilan ballonlarni vertikal holatda ushlang. Aks holda suyultirilgan propan-butan plitaga tushishi mumkin, bu esa yong'in sodir bo'lishiga va plita shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
2.8 Duxovka shkafining jihozlari asbob eshigi yopilganda uning oynasini qirishi mumkin. Har doim jihozlarni ishchi kameraga oxirigacha qo'ying.
2.9 Idish-tovoqlarni saqlash uchun qutiga issiq narsalarni solmang. Bu plitaga shikast yetkazishi mumkin.
2.10 Tunuka tova va duxovka panjarasi ustiga besh kilogrammdan ko'p og'irlikdagi narsalarni qo'ymang.

DIQQAT! Duxovka shkafi eshigini o'tirgich yoki tokcha sifatida ishlatish taqiqlanadi, eshik ustiga o'tirmang hamda idish va jihozlarni qo'ymang.

Gaz tarmog'ida nosozliklar paydo bo'lganida yoki xonada gaz hidi kelayotganida: gaz uzatilishini yopish yoki gaz ballonini berkitib qo'yish; ochiq olovni o'chirish, gugurt yoqmaslik, chekmaslik zarur; yoritish moslamalar va elektr asboblarni yoqish (o'chirish) mumkin emas; xonani yaxshilab shamollatib yuborish – derazalarni ochish; darhol bu haqda servisga yoki vakolatlangan gaz distribyutoriga xabar berish kerak.

TEXNIK TAVSIFLAR

Texnik tavsiflar	Ko'rsatkichlar	Multi Flame Ko'rsatkichlari
Tabiiy gazning normal bosimi	20 mBar	
Suyultirilgan gazning boshlang'ich bosimi (propan-butan)	30 mBar	
Elektr tarmog'ining boshlang'ich kuchlanishi	220-240 V	
Tokning boshlang'ich chastotasi	50 Hz	
Ishchi stolidagi kichik gaz Konforkasi	1,9kW	1,0 kW
Ishchi stolidagi o'rtacha gaz Konforkasi	2,3kW	2,1kW
Ishchi stolidagi katta gaz Konforkasi	3,3kW	3,3kW
Ishchi stolidagi kichik elektr konforka (D -150 mm)	1,0 kW	
Ishchi stolidagi katta elektr konforka (D -180 mm)	1,5 kW	
Pishirish duxovkasining tepadagi Gorelkasi	1,8 kW	
Pishirish duxovkasining pastdagi Gorelkasi	2,5 kW	
Pishirish duxovkasining tepadagi TEN	1,3 kW	
Pishirish duxovkasining pastdagi TEN	1,1 kW	
Pishirish duxovkasining ilmoq lampasi	15 W	
Six yuritmasi Motori	6 W	
Six yuritmasi Motori	0,6 A	
Gaz nazorat tizimi	Ishlash vaqti: 1 – 8 sek To'xtash vaqti: 20 – 50 sek	
Pishirish duxovkasining hajmi	65 L	
Plitaning o'lchamlari B x E x G	850x600x600 mm	

*** Sizda mavjud gaz bosimi ko'rsatkichlari yuqorida ko'rsatilgan jadval ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lgan taqdirda, oshxona plitasidan reduktorsiz foydalanish ta'qiqlanadi, aks holda Siz ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan taqdim etilgan kafolat majburiyatlaridan mahrum bo'lasiz.**

O'RNATISH VA ULASH

Diqqat!

4.1. Plitani gaz ta'minoti tizimiga ulashni faqat gaz plitalarni o'rnatish va ularga xizmat ko'rsatish huquqini beruvchi litsenziyaga ega tashkilotning malakali mutaxassisi amalga oshirishi kerak.

4.2 Plitani gaz ta'minoti tizimiga ulashni elektr montaj ishlarini amalga oshirish uchun ruxsat

Gaz tarmog'iga ulanish



Shlang yordamida ulanish — Gaz quvuriga ulanish — Ballonga ulanish beruvchi hujjatlarga ega mutaxassis bajarishi kerak (shtepselli vilka bilan jihozlangan plitalar bundan mustasno).

4.3 Plita elektr toki urishidan 1 himoya darajali asbob hisoblanadi va faqat yerga ulangan rozetkaga ulanishi mumkin.

4.4 Gaz o‘tkazuvchi quvurlar va elektr simlar asbobning orqa yuzasiga tegib turmasligi kerak.

4.5 Plitani o‘rnatish uchun rostlanadigan oyoqlardan (etkazib berish to‘plamiga kiradi) foydalaning.

4.6 Agar gazning turi va bosimi foydalanish bo‘yicha qo‘llanmada va plitaning markalash yorlig‘ida ko‘rsatilgan turi va bosimiga mos kelmasa, plitani ishlatish taqiqlanadi.

4.7 Ish stoli va oshxona havoni tortish moslamasi o‘rtasida masofa kamida 850 mm tashkil qilishi kerak.



4.8 Plita tekislangan bo‘lishi kerak. Buning uchun rostlanadigan oyoqchalarni plita kerakli darajaga yetmagunga qadar sozlang.

Diqqat!

4.9 Birinchi marta ishlatishdan oldin idishni o‘rnatmasdan tolning elektr konforkalarini minimal quvvatda yarim soat davomida qizdirib olish kerak.

Yangi asbobning hidini yo‘qotish uchun bo‘sh, yopiq duxovka shkafini 250°C haroratda 1 soat davomida qizdirib oling, bunda dastlab duxovka shkafida o‘ram materiallari qolmaganligiga ishonch hosil qiling. Ajralib chiqadigan hid va tutun xavfli emas.

4.10 Agar siz mahsulotning barqarorligini oshirishni xohlasangiz, devorga o'rnatilishi kerak bo'lgan uchta langar murvatli ushlagich mavjud.



Mutaxassislar uchun axborot

Gaz turiga jiklerlarning mos kelishi	Suyultirilgan gaz 30 mBar	Tabiiy gaz 20 mBar	Tabiiy gaz Multi Flame 20 mBar
Ishchi stolining Konforkalari			
Kichik konforka	55	95	70
O‘rta konforka	65	105	100
Katta konforka	85	125	125
Pishirish duxovkasi Gorelkalari			
Tepadagi gorelka	65/68*	95	93
Pastdagi gorelka	85/72*	110	110

* Eslatma: Jiklerlar duxovka shkafining yondirgichlari turiga qarab o`zgaradi.

PLITA TUZILISHI



BOSHQARISH PANELIDAGI BELGILANISHLAR

 Ishchi stolining gaz konforkalarini boshqarish dastasi	 Elektr konforkalar quvvatini almashlab ulash dastasi	 Duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasi	 Duxovka shkafining pastki yondirgichini boshqarish dastasi	 Elektr pechkasini ishlatish uchun boshqarish tugmasi.
 Duxovka shkafining termostatini boshqarish dastasi	 Elektr duxovka shkafining ishlash rejimlarini boshqarish dastasi	 Ustki issiqlik elektr qizdirgichining termostatini boshqarish dastasi	 Mexanik taymerning dastasi	

 Displey taymer	 Yoritish tugmasi	 Elektr alanga oldirish/yoritish tugmasi	 Six yuritmasi tugmasi
 Ish stoli elektr konforkalari ishlashi, duxovka shkafi EQE ishlashi indikatori.	 O'chirilgan holati	 Maksimal alangan Kichik alanga	 Ish stolida konforkalar holati

5.2. Ish stoli konforkalari



Uzoqdagi chap konforka. Yaqindagi chap konforka. Yaqindagi o'ng konforka. Uzoqdagi o'ng konforka.
Ish stolida konforkalar holati boshqarish panelida sxematik tasvirlangan.
Tutqichlarning an'anaviy belgilari va kanforkalarning pozitsiyasi o'zgarishi mumkin

5.3 Havoli aralashmaning jiklerlarini almashtirish va tirqishlarini o'rnatish tartibi (Mutaxassislar uchun ma'lumot)



P-shaklli asos va gorelka chashka trubkachasi orasidagi Z – masofa

Multi Flame	Tabiiy gaz	Suyultirilgan gaz
Ishchi stolining kichik konforkasi	Z = 2,0 мм	Z = 4,7 мм
Ishchi stolining o'rtacha konforkasi	Z = 2,7 мм	Z = 2,7 мм
Ishchi stolining katta konforkasi	Z = 4,6 мм	Z = 5,2 мм

ISHLASH TARTIBI

6.1 Ish stoli konforkalarini sozlash.
6.1.1 Gaz konforkali plitalar uchun
Alangasi nostabil va o‘chib qolishi mumkin bo‘lgan duxovka shkafi yondirgichlarini boshqarish dastasini «o‘chirilgan» va «maksimal alanga» holatlari o‘rtasida o‘rnatish **TAQIQLANAD**I.

DIQQAT! Gaz yondirgichining alanga tarqatgichi va qopqog‘i o‘z joyida aniq bo‘lishi kerak.
Konforkani yoqish uchun uning oldiga olovni olib boring, kran dastasini bosing va soat strelkasiga qarshi tomonga «maksimal alanga» holatiga burang.

Tugma yordamida yoqiladigan elektr alanga oldirish bilan plitalar
Stol konforkalarini yoqishda kran dastasini bosing va soat strelkasiga qarshi tomonga «maksimal alanga» holatiga burang, bir vaqtning o‘zida elektr alanga oldirish tugmasini oxirigacha bosing (bunda barcha zaryadsizlagichlar va konforkalar o‘rtasida uchqun paydo bo‘ladi). Gaz uzatilayotgan yondirgich yonadi.

Kran dastalari yordamida yoqiladigan elektr alanga oldirish bilan plitalar
Ish stoli konforkalarini yoqishda kran dastasini bosing va soat strelkasiga qarshi tomonga «maksimal alanga» holatiga burang (bunda barcha zaryadsizlagichlar va konforkalar o‘rtasida uchqun paydo bo‘ladi). Gaz uzatilayotgan yondirgich yonadi.

ECHIB QO‘YILGAN ALANGA TARQATGICHLARDA ELEKTR ALANGA OLDIRISH TUGMASINI BOSISH TAQIQLANADI - BU ELEKTR ALANGA OLDIRISH TIZIMI ISHDAN CHIQISHIGA OLIB KELISHI MUMKIN.

6.1.1.2 **«Gaz nazorat» xavfsizlik tizimiga** ega modellar uchun gazni yoqqandan so‘ng kran dastasini saqlash qurilmasi ishga tushishi uchun 10 sekund davomida ushlab turing. Elektr alanga oldirish uskunasi 15 sekundan uzoq faollashtirilishi mumkin emas. Agar 15 sekund tugaganidan so‘ng yondirgich yoqilmagan bo‘lsa, 1 minut kuting, keyin esa yana biz bor urinib ko‘ring.
6.1.1.3 Elektr energiya o‘chirilganda konforkani gugurt yordamida yoqish mumkin.
Kastryulya va tovalarni konforka markazi bo‘yicha qo‘ying, shunday tarzda alangadan issiqlik kastryulya yoki tova tubini optimal qizdiradi, kastryulya dastasi yoki ushlagichlari shikastlanmaydi, shuningdek yuqori darajada quvvat tejalishiga erishiladi.
6.1.2 **Elektr konforkali plitalar uchun**
6.1.2.1 Elektr konforkalarning qizish harorati pog‘onali almashlab ulagichlar bilan tartibga solinadi. Elektr konforkani yoqish uchun almashlab ulagich dastasini «O» holatidan tanlangan rejim bo‘limiga o‘rnatib qo‘ying, bunda elektr konforkalar ishlashi indikatori yonadi. Almashlab ulagichlarning konstruksiyasi elektr konforkalarni ham soat strelkasi bo‘yicha va unga qarama-qarshi tomon bo‘yicha yoqish imkonini beradi.
6.1.2.2 Tayyorlash jarayoni tugashiga 10-15 minut qolganida elektr konforkani o‘chirib qo‘yish mumkin, to‘plangan issiqlik tayyorlash jarayonini yakunlash uchun yetarli bo‘ladi. Bunda elektr energiya tejaladi.

DIQQAT! Hech qachon elektr konforkani uning ustiga o‘rnatilgan idishsiz yoqmang, birinchi marta ishlatish bundan mustasno.

6.1.2.3 Elektr konforka to'g'ri ishlashi uchun idish elektr konforka yuzasiga yaxshi yopishadigan yassi tubga ega bo'lishi kerak. Idish diametri elektr konforkaning diametriga teng yoki undan biroz katta bo'lishi lozim.



6.1.2.4 Elektr konforka yuzasi va idish tubi toza bo'lishi kerak, yopishib qolgan ifloslik sezilarli darajada issiqlik chiqarishni pasaytiradi.
6.1.2.5 Tayyorlash jarayonida idishlarni qopqoq bilan yoping va ularni ochish yoki yechish ehtiyoji bo'lmaydigan rejimni tanlang.

Elektr konforkalar keskin sovishiga **YO'L QO'YMANG**. Elektr konforkalar ustiga to'kilib ketgan sovuq suyuqlik oqibatida, ular ishdan chiqishi mumkin.
6.2 **Duxovka shkafini sozlash**
6.2.1 **Gaz yondirgichli duxovka shkaflar uchun**
6.2.1.1 **Elektr alanga oldirish bilan jihozlanmagan modellar uchun**

Duxovka shkafining pastki yondirgichini alanga oldirish uchun yondirilgan gugurtni o't oldirgich darchasiga olib boring, duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasini bosing va soat strelkasiga qarshi tomonga «maksimal alanga» holatiga burang.

O't oldirgich darchasi

Duxovka shkafining tepa yondirgichini (gril) alanga oldirish uchun yondirilgan gugurtni tepa yondirgichiga olib boring, duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasini bosing va soat strelkasi bo'yicha oxirigacha burang.

6.2.1.2 **Elektr alanga oldirish va «gaz nazorat» saqlagich qurilmasi bilan jihozlangan modellar uchun**

DIQQAT! DUXOVKA SHKAFINING YONDIRGICHLARINI ALANGA OLDIRISH FAQAT DUXOVKA SHKAFINING OCHIQ HOLATIDAGI ESHIGI BILAN AMALGA OSHIRILISHI MUMKIN!

Duxovka shkafining pastki yondirgichini alanga oldirish uchun duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasini oxirigacha bosing va soat strelkasiga qarshi tomonga «maksimal alanga» holatiga burang. Yonganda boshqarish dastasini saqlash qurilmasi ishga tushishi uchun bosilgan holatda 10-15 sekund davomida ushlab turing. Duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasini qo'yib yuborganda alanga o'chib qolmaganiga ishonch hosil qiling. Agar yondirgich o'chib qolgan bo'lsa, duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasini «o'chirilgan» holatiga burab qo'ying va bir minut kutib, yana bor urinib ko'ring.

Duxovka shkafining tepa yondirgichini (gril) alanga oldirish uchun duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasini oxirigacha bosing va soat strelkasi bo'yicha oxirigacha burang. Gaz yonib ketganida boshqarish dastasini saqlash qurilmasi ishga tushishi uchun bosilgan holatda 10-15 sekund davomida ushlab turing. Duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasini qo'yib yuborganda alanga o'chib qolmaganiga ishonch hosil qiling. Agar yondirgich o'chib qolgan bo'lsa, duxovka shkafining yondirgichlarini boshqarish dastasini «o'chirilgan» holatiga burab qo'ying va bir minut kutib, yana biz bor urinib ko'ring.

6.2.1.3 Duxovka shkafining haroratini sozlash.
Duxovka shkafida harorat dastani «maksimal alanga» holatidan «kichik alanga» holatigacha diapazonda burash bilan tartibga solinadi.

Alangasi nostabil va o'chib qolishi mumkin bo'lgan duxovka shkafi yondirgichlarini boshqarish dastasini «o'chirilgan» va «maksimal alanga» holatlari o'rtasida o'rnatish TAQIQLANADI.

6.2.2 **Naychasimon elektr qizdirish elementlari (EQE) bilan duxovka shkaflari uchun**
6.2.2.1 **Taymersiz faqat ustki EQE (gril) bilan jihozlangan modellar uchun**

Termostatni boshqarish dastasi bilan kerakli haroratni o'rnating, grilning EQE ishlashni boshlaydi. Tayyorlash jarayoni yakunlanganidan so'ng termostatni boshqarish dastasini «o'chirilgan» holatiga qaytaring.

6.2.2.2 **Faqat ustki EQE (gril) va mexanik taymer bilan jihozlangan modellar uchun**

- Termostatni boshqarish dastasi bilan kerakli haroratni o‘rnating
- Mexanik taymer dastasi bilan kerakli tayyorlash jarayoni vaqtini o‘rnating (6.2.5-band), grilning EQE ishlashni boshlaydi. Belgilangan vaqt tugaganidan so‘ng qizdirish o‘chadi, signal chalinadi. Tayyorlash jarayoni yakunlanganidan so‘ng termostatni boshqarish dastasini «o‘chirilgan» holatiga qaytaring.

6.2.2.3 **Taymersiz ustki EQE (gril), pastki EQE bilan jihozlangan modellar uchun**

- Termostatni boshqarish dastasi bilan kerakli haroratni o‘rnating.
- Duxovka shkafining ishlash rejimlari dastasi bilan EQE(lar)ning talab qilinadigan ishlash rejimini o‘rnating, EQE(lar) ishlashni boshlaydi. Tayyorlash jarayoni yakunlanganidan so‘ng termostat va duxovka shkafining ishlash rejimlarini boshqarish dastalarini «o‘chirilgan» holatiga qaytaring.

6.2.2.4 **Ustki EQE (gril), pastki EQE va mexanik taymer bilan jihozlangan modellar uchun**

- Termostatni boshqarish dastasi bilan kerakli haroratni o‘rnating.
- Duxovka shkafining ishlash rejimlari dastasi bilan EQE(lar)ning talab qilinadigan ishlash rejimini o‘rnating.
- Mexanik taymer dastasi bilan kerakli tayyorlash jarayoni vaqtini o‘rnating (6.2.5-band), EQE(lar) ishlashni boshlaydi. Belgilangan vaqt tugaganidan so‘ng qizdirish o‘chadi, signal chalinadi. Tayyorlash jarayoni yakunlanganidan so‘ng termostat va duxovka shkafining ishlash rejimlarini boshqarish dastalarini «o‘chirilgan» holatiga qaytaring.

6.2.2.5 **Ustki EQE (gril), pastki EQE va raqamli taymer bilan jihozlangan modellar uchun**

- Termostatni boshqarish dastasi bilan kerakli haroratni o‘rnating.
- Duxovka shkafining ishlash rejimlari dastasi bilan EQE(lar)ning talab qilinadigan ishlash rejimini o‘rnating.
- Raqamli taymerni sozlang va ishga tushiring (6.2.6-band), EQE(lar) ishlashni boshlaydi. Belgilangan vaqt tugaganidan so‘ng qizdirish o‘chadi, signal chalinadi. Tayyorlash jarayoni yakunlanganidan so‘ng termostat va duxovka shkafining ishlash rejimlarini boshqarish dastalarini «o‘chirilgan» holatiga qaytaring.

Duxovka shkafining ustki yondirgichi (gril)

Grilning infraqizil nurlanishi gulxan ko‘mirlari singari ta'sir qiladi. Tashqi tomondan go‘shtni mazali va mayin saqlab turuvchi qizarib pishgan qobiq hosil bo‘ladi.

Gril tayyor pishiriqni qizartirib olishda as qotadi.

Go‘shtni tayyorlashda tunuka tova yoki issiqlikka chidamli idishni tepadan ikkinchi tokchaga qo‘yish kerak. Go‘shtni panjarada ham pishirish mumkin, bunda simlarga o‘simlik moyini surtish kerak bo‘ladi. Bu holda panjara tagiga yog‘ va ajralib chiqadigan shirani yig‘ish uchun ko‘ra qo‘yish lozim. Yog‘ yoki shira kuyib va bug‘lanmasligi uchun ko‘raga 1-2 stakan suv kuyib qo‘ying.

6.2.2.6 Elektr pechining ishlash tartibi

Past isitish	Yuqori isitish (gril)	Pastgi + yuqori isitish	Past isitish + yuqori isitish + ventilyator	Yuqori isitish (gril) + ventilyator	Rolikli isitgich + ventilyator

<u>Past isitish rejimi</u>

Faqat quyi isitgich ishlaydi. Bu no'xat bilan to'lg'azish, shuningdek, uzun pishirish uchun shirinlik quyqasini quritish uchun mo'ljallangan.

<u>Yuqori isitish rejimi (gril)</u>

Faqat yuqori isitgich ishlaydi. Bu asosiy tayyorlash rejimida, shuningdek, yakuniy bosqichda - deyarli tayyor ovqatdan qovurish uchun mo'ljallangan.

<u>Pastgi + yuqori isitish rejimi</u>

Quyida va yuqoridan kelgan ikkita elektr isitgich bir vaqtning o'zida ishlaydi. Non, pishirish, pechene, nozik kek, pechene, non uchun mo'ljallangan, to'ldirilgan sabzavot, issiq, yorma mol go'shti, parrandachilik, baliq, baliq go'shtini tayyorlash uchun mo'ljallangan.

<u>Rejimni past isitish + yuqori isitish +</u>

Ikkita isitgich pech orqasida o'rnatilgan ventilyatorni ishlatish bilan ishlaydi. Havo massasining harakatlanishi sababli idishlarni isitish yanada qizg'inlashadi, belgilangan harorat juda ko'p bo'ladi

qisqa vaqt ichida mahsulot tezroq va har tomondan qovuriladi. Jarayonning tezligi idishning ichki suyuqligini saqlashga imkon beradi. Ushbu rejimda an'anaviy haroratni kamaytirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, pishirish ancha kam vaqt oladi (30% gacha).

Ushbu tartib ichki va tashqi makonni pishirishni talab qiladigan katta idishlar uchun mos keladi, masalan, qovurilgan tuxumlar, krujkalar, pudinglar, oshxonalar, issiq.

Rejim bir vaqtning o'zida ikki yoki uch daraja pishirishni ta'minlaydi.

<u>Yuqori isitish rejimi (panjara) + ventilyator</u>

Yuqori isitish elementining isishi juda shiddatli emas. Ventilyator radyatsiyani faqat yuqoridan emas, balki qovurish jarayonida pastdan va yon tomondan ham yordam beradi. Shu bilan birga, grilning barcha afzalliklari saqlanib qoladi - xovli qobig'i, tuyadi, xushbo'y va shirali xamir. Ovqat qurub qolmaydi va juda tez tayyor bo'ladi.

Ushbu rejim uchun odatdagidek panjara pishiradigan barcha idishlar - rulon va parranda uchun mos keladi.

<u>Halqasimon isitgich rejimi + ventilyator.</u>

Isitgich pechning orqa devori ventilyator bilan joylashgan. Ushbu rejim bir vaqtning o'zida bir nechta ta'omlarni tayyorlashga imkon beradi. Pechni oldindan isitish kerak emas. U pishiriqni tayyorlash, qo'ziqorinlarni, mevalarni quritish, uyda tayyorlangan konserva mahsulotlarini sterilizatsiya qilish va ayni paytda barcha turdagi ta'omlarni yumshoq va shirin tayyorlash uchun mo'ljallangan.

DIQQAT! Yoqilgan duxovka shkafining ichki yuzalari ustiga alyuminiy folgasini solish, shuningdek duxovka shkafining tubiga jihozlarni qo‘yish mumkin emas, bu havo oqimiga xalaqit qiladi, pishirish jarayonini sekinlashtiradi va emal shikastlanishiga olib keladi.

6.2.3 **Six**



Six ishlashi uchun tashuvchi ramkani duxovka shkafi teshiklarining uchinchi darajasiga o‘rnatib qo‘ying.

Nayzaga go‘sht yoki parrandani sanchib qo‘ying va uni mahkamlovchi vintlar yordamida mahkamlab qo‘ying.

Six nayzasini yuritma teshigiga (duxovka shkafining orqa devorida) oxirigacha o‘rnatib qo‘ying. Nayzaga qo‘yilgan go‘sht bo‘lagi aniq gril ustida bo‘lishi kerak.

Tagiga yog‘ yig‘ish uchun tunuka tovani joylashtiring.

Grilni alanga oldiring (yoqing).

Boshqarish panelidagi tugmaga bosib six yuritmasini yoqing.

Tayyorlash jarayonida six dastasi olib qo‘yilgan, eshik esa yopilgan bo‘lishi kerak.

6.2.4 **Duxovka shkafining yoritish moslamasi**

Duxovka shkafining yoritish moslamasini yoqish uchun boshqarish panelida tegishli tugmaga bosing.

6.2.5 **Mexanik taymer**

Taymerni ishga tushirish uchun dastani soat strelkasi bo‘yicha «O» holatidan talab qilinayotgan vaqt belgilanishigacha burash kerak. Taymer 10 minutdan 90 minutgacha vaqt sanalishini ta'minlaydi.

6.2.6 Displey taymeri

6.2.6.1 Taymer qurilmasi

1. Joriy vaqtni sozlash tugmasi
2. Taymerni sozlash tugmasi
3. Menyu tugmasi - vazifalarni tanlang
4. (+) tugmasi
5. (-) tugmasi
6. Lock tugmasi
7. Vaqt ko'rsatkichi
8. Pishirish shkafidagi harorat ko'rsatkichi
9. Avtomatik rejim belgisi
10. Pishirish pechi ishining belgisi
11. Pishirish shkafining qo'l rejimi
12. Pishirish shkafi TEN ni avtomatik o'chirish belgisi
13. Pishirish shkafidagi TEN avtomatik ravishda kiritish belgisi.
14. Pishirish shkafidagi haroratni sozlash belgisi
15. Taymer rejimi belgisi
16. Blokirovka rejimi belgisi

- Elektr ta'minoti to'xtatilganda o'rnatilgan dastur bekor qilinadi. Pechni qayta sozlash kerak.
- Sozlamalar paytida mos keladigan belgilar displeyda yonadi. Tugmalarni bosmasdan 4 sekund kutib turing, sozlama avtomatik ravishda faollashadi.
- Pishirish boshlangandan keyin harorat o'rnatilsa, joriy vaqt va pechning haqiqiy harorati ko'rsatiladi.
- Pechni keyinroq ishlatganda, agar taymer ishlatilmasa, qo'lda rejimda ekanligini tekshiring.

6.2.6.2 Joriy vaqtni belgilash

Elekrt quvvati o'chirilganidan keyin elektr quvvati yoqilganda yoki tarmoqqa qayta ulangandan so'ng vaqt indikatori 12:00 yonadi AUTO.

Joriy vaqtni belgilash uchun tugmasini bosing. Displeyda quyidagi belgilar paydo bo'ladi, Joriy vaqtning 88:88 shaklli indikatori yonishdan to'xtaydi. «+», «-» tugmalari yordamida kun vaqtini sozlang. Tugmalarning qisqa bosilishi indikator ko'rsatgichini 1 daqiqaga o'zgartiradi.

6.2.6.3 Pishirish shkafidagi haroratni sozlash (thermostat funktsiyali display uchun)

Funktsiyalarni tanlash uchun M tugmasini uch marta bosing, ekranda pishirish shkafi haroratini sozlash tugmasi paydo bo'lmaydi, bunda pishirish shkafi haroratining 888°C indikatori yona boshlaydi. Haroratni «+», «-» tugmalari yordamida sozlang.

6.2.6.4 Qo'lda rejimini sozlash

Joriy vaqtni belgilab qo'yganingizdan so'ng pech avtomatik ravishda qo'lda rejimga o'rnatiladi. Ekranda qo'ldagi rejimning joriy vaqti va belgilari ko'rsatiladi

Taomni pechga qo'ying. Pishirish shkafi termostatini boshqarish dastagi yordamida Pishirish haroratini o'rnating.
Termostat funksiyasi bilan ishlaydigan displey uchun o'rnatish (6.2.6.3) ga muvofiq amalga oshiriladi.

Pishirish shkafi ishi rejimlarini boshqarish dastagi bilan tayyorlash dasturini tanlang. Pech ishlay boshlaydi. Ushbu rejimda, pishirish shkafi ishi vaqti foydalanuvchi tomonidan belgilanadi va nazorat qilinadi. Ishlash rejimini o'chirishda, pechning nazorat panelidagi dastagidan o'chirib qo'ying.

6.2.6.5 Taymer rejimini sozlash

Ko'rsatkich soati faqat pishirish dasturini sozlash uchun emas, balki undan pishirish vaqti oralig'ini va ovozli ogohlantirishlarni o'rnatish uchun ham ishlatish mumkin. Taymer qo'l rejjimiga o'rnatiladigan pechning ishlashiga ta'sir qiladi. Sizga ma'lum vaqtlarda, pech ichidagi yoki konforkalardagi taom holatini tekshirish kerakligini eslatish uchun ishlatiladi.

Taymerni sozlash uchun tugmachasini bosing. Ekranda belgisi yonadi.

88:88 Vaqt indikatori yonishdan to'xtaydi.

« + », « - » tugmalaridan foydalaning tayyorlash vaqtini sozlang.

Taymer rejimi belgisi milt-milt yonishdan to'xtasa – funksiya ishga tushadi. Belgilangan

vaqt o'tgandan so'ng, ovozli signal yonadi, va belgisi yana miltillaydi.
Ovozli signalning davomiyligi 2 daqiqa. Signalni o'chirish uchun biron bir tugmani bosing.
Belgisi o'chadi, ekranda joriy vaqt ko'rsatiladi.

6.2.6.6 Tayyorlash vaqtini sozlash.
Agarda siz pishirishni darhol boshlamoqchi va ma'lum vaqtdan keyin pishirish shkafi o'z ishini ma'lum vaqt o'tib to'xtatishini istasangiz, taymerda pishirish vaqtini belgilang.
Funktsiyani tanlash uchun tugmachasini bosing. Displeyda bir vaqtning o'zida avtomatik pishirish rejimining belgilarini va pishirish shkafi TEN ni avtomatik o'chish belgisini paydo bo'ladi. Vaqt indikatori o'chadi.
« + », « - » tugmalari yordamida, taom pishirilishi kerak bo'lgan vaqtni sozlang
Taomni pechga qo'ying. Pishirish shkafi termostatini boshqarish dastagi yordamida tayyorlash vaqtini belgilang.
Termostat funksiyasi bilan ishlaydigan displey uchun o'rnatish (6.2.6.3) ga muvofiq amalga oshiriladi
Pishirish shkafi termostatini boshqarish dastagi yordamida ishlash tugmachasini bosib pishirish dasturini tanlang. Pech ishlashni boshlaydi.
Oldindan belgilangan vaqt tugagach, ishlayotgan isitgichlar o'chadi va ovozli signal yoqiladi, belgisi o'chadi va belgisi yonadi.

Pishirish shkafining ishlash rejimlarini boshqarish dastagini «0» holatga burang- bu pishirish shkafi dasturining qayta ishga tushishining oldini oladi.
Rejimni bekor qilish uchun , tugmani bosing, undan keyin taymer qo'lda rejimga o'tadi displeyda piktogramma yonadi .

6.2.6.7 Tayyorlashni kechiktirish vaqtini sozlash.
Pishirish vaqtini belgilab qo'yganingizdan so'ng, keyinchalik pishirish vaqtini belgilashingiz mumkin.
Funktsiyani tanlash uchun tugmachasini bosing. Displeyda bir vaqtning o'zida avtomatik pishirish rejimining belgilari va avtomatik o'chish belgisini yonadi.
vaqt indikatori yonishdan to'xtaydi.
« + », « - » tugmalaridan foydalanib, taom pishishi kerak bo'lgan vaqtni belgilang.
Pishirish vaqtini belgilab qo'yganingizdan keyin yana bir marta funktsiya tugmasini bosing. Displeyda pishirish shkafi TEN ni avtomatik yoqish belgisi paydo bo'ladi.
Vaqt indikatori yonishdan to'xtaydi.
« + », « - » tugmalaridan foydalanib, taom pishishi kerak bo'lgan vaqtni belgilang.
Taomni pechga qo'ying. Pishirish shkafi termostatini boshqarish dastagi yordamida tayyorlash vaqtini belgilang.
Termostat funksiyasi bilan ishlaydigan displey uchun o'rnatish (6.2.6.3) ga muvofiq amalga oshiriladi.
Pishirish shkafi termostatini boshqarish dastagi yordamida ishlash tugmachasini bosib pishirish dasturini tanlang.
Pishirish shkafining taymeri tayyorlashni boshlash vaqtinipishadigan vaqtni belgilangan muddatdan olib tashlagan holda boshlab hisoblaydi.

Pishirishni boshlash vaqti kelganida, pech tanlangan rejimda yonadi va belgilangan haroratgaqadar isitiladi. Bu harorat ovqat pishirish vaqti tugaguniga qadar saqlanadi.

Pishirishni boshlashni kutayotib, displeyda joriy vaqt va AUTO avtomatik rejim belgisi ko'rsatiladi.
Pishirish paytida va pishirish vaqtida displeyda AUTO belgilari ko'rsatiladi
Oldindan belgilangan vaqt oralig'idan keyin ishlayotgan isitgichlar o'chadi va ovozli signal yonadi belgisi yo'qoladi, AUTO belgisi miltillay boshlaydi
PIshirish shkafi ishi rejimlarini boshqarish dastagini «0» holatiga o'rnating.
Rejimni bekor qilish uchun M , tugmani bosing, undan keyin taymer qo'lda rejimga o'tadi displeyda tugmalari yonadi

6.2.6.8 Bloklashni sozlash.
Bloklash/Qulflash rejimini faollashtirish uchun, ekranda qulflanish belgisi paydo bo'lguncha tugmachani bosing va ushlab turing. Displey qulflanadi.
Qulfni ochish uchun tugmachani bosing va ushlab turing. Boshqaruv paneli ochilib, displeydagi belgisi yo'qoladi.

Istalgan vaqtda dasturlashtirilgan sozlamalarni tekshirish va o'zgartirish mumkin. Korrektirovka quyidagi tarzda amalga oshirilishi mumkin: Tanlangan funktsiyaning belgisi miltillay boshlaguncha 1,2,3 tugmachalarini bosing. Dastur parametrlarini o'zgartirish uchun 4 va 5 ni bosing.

QARASH VA TOZALASH

DIQQAT! Xizmat ko‘rsatishdan oldin plitani elektr tarmog‘idan o‘chiring, gaz uzatilishini berkitib qo‘ying.

7.1 Tozalashdan oldin har doim asbob sovishini kuting. Ishlash kameradan issiq idish yoki jihozlarni olib qo‘yish uchun har doim ushlagichlardan foydalaning.
7.2 Plita yuzalarini yumshoq oshxona gubkasi, idish uchun yuvish vositasi bilan iliq suvda yuvish va mato bilan artish kerak. Ayniqsa axborot belgilari tushirilgan boshqarish panelini tozalashda ehtiyot bo‘ling.
7.3 Metall gubkalar, o‘yuvchi tozalash vositalar, abraziv kukunlar hamda plitaning yuzasini qaytarib bo‘lmas darajasida shikastlanishi va rasmlarni o‘chirib tashlashi mumkin bo‘lgan boshqa agressiv komponentlarni ishlatmang.
7.4 Gaz konforkalarni tozalash yoki ish stolini yuvish uchun alanga tarqatgichlarini olib qo‘ygan yaxshi.

7.5 Stol va keramik zaryadsizlagichlarni tozalashda ehtiyot bo'ling. Elektr alanga oldirishning ifloslangan va ho'l zaryadsizlagichlari ishlamasligi mumkin.
7.6 Tozalash uchun yuqori bosimli tozalagichlar yoki bug'-oqimli tozalagichlarni ishlatmang. Plitaning konstruksiyasi uni bug' bilan tozalashni nazarda tutmaydi.
7.7 Plitaning detallarini idish-tovoq yuvish mashinasida yuvish taqiqlanadi.



7.8 Ish stolining yopg`ichini yaxshilab yuvish uchun uni yechib qo'yish mumkin.
Ish stoli yopg`ichi.
Yopg`ichni oching, yopg`ichni ikki qo'lingiz bilan ushlang va uni yuqoriga torting.
Tozalab bo'lgandan so'ng yopg`ichni o'z joyiga o'rnatib qo'yish kerak, bunda harakatlar teskari ketma-ketlikda bajariladi.
Plitani qopqoq bilan yopishdan oldin konforkalar sovishini kuting.

7.9 Duxovka shkafi eshigini yechish va o'rnatish



Duxovka shkafining eshigini to'liq oching va olinadigan tilchalarni oxirigacha orqaga ochib qo'ying. So'ng tilchalar eshikdagi sharnir bog'lamasiga taqalib qolishi uchun eshikni asta-sekin yoping.
Eshikni biroz ko'taring va uni duxovka shkafining pazlaridan chiqarib oling.
O'rnatish teskari tartibda bajariladi. Eshikni engashtirib, uni sharnir ilgaklari bilan duxovka shkafining pazlariga oxirigacha o'rnatib qo'ying. Sharnirlar teshiklarga to'g'ri «o'tirganligiga» ishonch hosil qiling. So'ng eshikni to'liq oching, tilchalarni dastlabki (gorizontal) holatiga oxirigacha o'rnatib qo'ying.
Eshik ishlayotganligini tekshiring.

DIQQAT! Hech qachon eshik sharnirlarining muftalari chiqib ketishiga imkon bermang, chunki kuchli prujinalar shikastlanishlarga olib kelishi mumkin.

7.10 Duxovka shkafining yoritish moslamasi lampasini almashtirish
Plitani tarmoqdan o'chirib qo'ying.
Shisha plafonni burab chiqaring.
Quygan lampani olib, unga o'xshash yangisiga almashtiring (yuqori haroratlarga chidamli zaxira lampalarni servis xizmatida yoki ixtisoslashtirilgan do'konlarda sotib olish mumkin). Faqat ko'rsatilgan lampalarni ishlating.

7.11 Vaqti-vaqti bilan (yarim yilda kamida bir marta) ta'minot simi va gazni uzatish egiluvchan shlangi holatini tekshirib turing. Yoriq, erish izlari, material qotib qolishi ko'rinishidagi nuqsonlarga yo'l qo'yilmaydi.

EHTIMOLDAGI NOSOZLIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI

Nima sodir bo'lmoqda	Sababi	Qanday bartaraf etish kerak
1. Konforka yonmayapti yoki sust yonmoqda	-tarmoqdagi bosim juda past; -konforka xato o'rnatilgan; -soplo bitib qolgan	-gaz ta'minot xizmatiga murojaat qiling; -konforkani to'g'ri o'rnating; -ingichka sim yoki igna bilan soploni tozalang
2.Konforka alanga uzilishlari bilan zo'riqib yonmoqda	-tarmoqda haddan tashqari yuqori bosim	- gaz ta'minot xizmatiga murojaat qiling; -yonish barqarorlangunga qadar dasta (konforka boshqarish) bilan gaz uzatilishini kamaytiring
Z.Qiziganda kran dastasi to'xtab qolmoqda	-kranning moyi ishlab tugagan	-* krandagi moyni almashtiring
4.Barcha elektr jihozlar ishlamayapti	-plita tarmoqqa ulanmagan; -ta'minot simi shikastlangan	- plitani ulang -* ta'minot simini almashtiring
5. Elektr alanga oldirish ishlamayapti - uchqun yo'q - uchqun bor, lekin yonmayapti	-zaryadsizlagichga boradigan sim shikastlangan; -zaryadsizlagich korpusi singan; -zaryadsizlagich kuchli ifloslangan yoki ustiga suv quyilgan; -tarmoqda haddan tashqari yuqori bosim.	-* zaryadsizlagichni almashtiring; -* zaryadsizlagichni almashtiring; - zaryadsizlagichni almashtiring, tozalang va quritib oling; -kamroq gaz uzatilganda yoqilsin
b.Six aylanmayapti	-six yuritmasi oraliq nuqtada to'xtab qolgan	- yoqqanda dasta bilan nayzani har qaysi tonga burang
7. Duxovkani yoritish moslamasi lampasi yonmayapti	-lampa kuygan	-lampani almashtiring
* - ishlar servis xizmati tomonidan bajariladi		

SAQLASH SHARTLARI

Plitalar mo''tadil va sovuq iqlimli hududlarda foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda ular sun'iy tartibga solinadigan iqlim sharoitli xonalarda, masalan, yopiq isitiladigan yoki sovitiladigan va shamollatib turiladigan (to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari, atmosfera yog'ingarchiliklari, tashqi havoning shamoli, qumi va changgi ta'sir etmaydigan; tarqalgan quyosh nurlanishi va namlik kondensatsiyasi mavjud bo'lmagan yoki sezilarli darajada ta'siri kam bo'lgan) xonalarda joylashtirilishi kerak.

UTILLASHTIRISH

10.1 Plitani o'rab joylashtirish uchun qo'llaniladigan materiallar to'liq qayta ishlanishi va qayta ishlatishi mumkin, agar ular ikkilamchi xom ashyolarni qabul qilish punktlariga kelib tushsa.

DIQQAT! Bolalarga o'ram materiallar bilan o'ynashlariga ruxsat bermang, chunki karton qutida berkinib yoki o'ram plyonkasiga o'ralib qolib bo'g'ilib o'lish xavfi mavjud.

10.2 Utillashtirilishi lozim bo'lgan plitani ta'minot simini kesib tashlab yaroqsiz holatiga keltirish va amaldagi qonunchilikka muvofiq utillashtirish zarur.

СОДЕРЖАНИЕ

УВАЖАЕМЫЕ ПОКУПАТЕЛИ!

Специалисты компании «ARTEL» неустанно работают над совершенствованием продукции, улучшением их характеристик, дизайна и безопасности, поэтому рисунки и обозначения в руководстве могут несколько отличаться от Вашей модели. Право вносить изменения без предварительного уведомления Компания «ARTEL» оставляет за собой.

Благодарим Вас за покупку и надеемся, что Вы сможете убедиться в качестве и надёжности нашей продукции.

